

2023- yil yanvar-avgust oylari uchun
dastlabki ma'lumot



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(62) 224-65-09



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **594,9 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **76,4 mln. AQSH** dollariga yoki **14,7 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **594,7** +14,7 %

(2022- y.: **518,6**)



Saldo

2023- y.: - **176,6** (2022 y.: - **180,1**)



Eksport

2023- y.: **209,2** +23,6 %

(2022- y.: **169,2**)



Tovarlari: **202,1**



Xizmatlari: **7,1**



Import


2023- y.: **385,8** +10,4 %

(2022- y.: **349,3**)





Tovarlari: **385,8**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi **209,2** mln. AQSH dollariga (**23,6** % ga ko‘paydi) va import hajmi **385,8** mln. AQSH dollariga (**10,4** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-176,6** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)

| | | | | |
|--|---|---|--|--|
| <p>Braziliya</p> <p>TSA – 125,0</p> <p>Eksport : 0,0 Import : 125,0</p> <p> 21,0 %</p> | <p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 97,3</p> <p>Eksport : 55,5 Import : 41,8</p> <p> 16,3 %</p> | <p>XXR</p> <p>TSA – 77,4</p> <p>Eksport : 7,2 Import : 70,2</p> <p> 13,0 %</p> | <p>Pokiston</p> <p>TSA – 54,9</p> <p>Eksport : 54,6 Import : 0,3</p> <p> 9,2 %</p> | <p>Turkiya</p> <p>TSA – 47,4</p> <p>Eksport : 10,4 Import : 37,0</p> <p> 8,0 %</p> |
| <p>Germaniya</p> <p>TSA – 27,8</p> <p>Eksport : 0,7 Import : 27,1</p> <p> 4,7 %</p> | <p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 26,5</p> <p>Eksport : 26,3 Import : 0,2</p> <p> 4,5 %</p> | <p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 21,7</p> <p>Eksport : 14,0 Import : 7,7</p> <p> 3,6 %</p> | <p>Belarus</p> <p>TSA – 17,0</p> <p>Eksport : 2,0 Import : 15,0</p> <p> 2,9 %</p> | <p>Tojikiston</p> <p>TSA – 14,2</p> <p>Eksport : 14,2 Import : 0,0</p> <p> 2,4 %</p> |

Xorazm viloyati jahonning **130** mamlakati bilan tashqi savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (**2,0** %), Rossiya Federatsiyasi (**16,3** %), XXR (**13,0** %), Pokiston (**9,2** %), Turkiya (**8,0** %), Germaniya (**4,7** %) va Qirg'iz Respublikasida (**4,5** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, va Afg'oniston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda qo'shni davlatlar bilan viloyatning TSAsi hajmi **24,1** foizga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



Pokiston – 54,3



Qirg'iz Respublikasi – 26,2



Tojikiston – 14,2














Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **6** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan **14** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)

| Davlatlar | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|---|-------------|--------------|--------------|
| Braziliya | 97,6 | 123,8 | 125,0 |
|  <i>Eksport</i> | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| <i>Import</i> | 97,6 | 123,8 | 125,0 |
| Rossiya Federatsiyasi | 67,4 | 99,6 | 97,3 |
|  <i>Eksport</i> | 40,1 | 59,9 | 55,5 |
| <i>Import</i> | 27,3 | 39,7 | 41,8 |
| XXR | 85,2 | 77,9 | 77,4 |
|  <i>Eksport</i> | 16,7 | 7,7 | 7,2 |
| <i>Import</i> | 68,5 | 70,2 | 70,2 |
| Pokiston | 5,0 | 6,0 | 54,9 |
|  <i>Eksport</i> | 4,2 | 5,8 | 54,6 |
| <i>Import</i> | 0,8 | 0,2 | 0,3 |
| Turkiya | 51,5 | 85,8 | 47,4 |
|  <i>Eksport</i> | 16,8 | 21,4 | 10,4 |
| <i>Import</i> | 34,7 | 64,4 | 37,0 |
| Germaniya | 4,2 | 6,9 | 27,8 |
|  <i>Eksport</i> | 0,2 | 1,4 | 0,7 |
| <i>Import</i> | 4,0 | 5,5 | 27,1 |
| Qirg'iz Respublikasi | 26,0 | 24,6 | 26,5 |
|  <i>Eksport</i> | 25,9 | 24,1 | 26,3 |
| <i>Import</i> | 0,1 | 0,5 | 0,2 |
| Qozog'iston | 18,9 | 41,0 | 21,7 |
|  <i>Eksport</i> | 13,4 | 31,2 | 14,0 |
| <i>Import</i> | 5,5 | 9,8 | 7,2 |
| Belarus | 2,1 | 4,7 | 17,0 |
|  <i>Eksport</i> | 0,9 | 1,4 | 2,0 |
| <i>Import</i> | 1,2 | 3,3 | 15,0 |
| Tojikiston | 3,4 | 2,3 | 14,2 |
|  <i>Eksport</i> | 3,0 | 2,1 | 14,2 |
| <i>Import</i> | 0,4 | 0,2 | 0,0 |

| | Davlatlar | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|---|----------------------------|-------------|------------|-------------|
| | Eron | 6,9 | 5,4 | 13,9 |
|  | <i>Eksport</i> | 3,4 | 1,8 | 5,9 |
| | <i>Import</i> | 3,5 | 3,7 | 8,0 |
| | Polsha | 2,1 | 5,1 | 8,2 |
|  | <i>Eksport</i> | 0,5 | 0,6 | 3,2 |
| | <i>Import</i> | 1,6 | 4,5 | 5,0 |
| | Turkmaniston | 7,3 | 7,5 | 8,1 |
|  | <i>Eksport</i> | 4,4 | 2,9 | 1,9 |
| | <i>Import</i> | 2,9 | 4,6 | 6,2 |
| | Koreya Respublikasi | 16,0 | 2,4 | 5,5 |
|  | <i>Eksport</i> | 0,5 | 0,2 | 2,8 |
| | <i>Import</i> | 15,5 | 2,2 | 2,7 |
| | Litva | 1,5 | 2,4 | 5,4 |
|  | <i>Eksport</i> | 0,0 | 0,2 | 1,0 |
| | <i>Import</i> | 1,5 | 2,2 | 4,4 |
| | Shveysariya | 0,3 | 0,9 | 4,8 |
|  | <i>Eksport</i> | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| | <i>Import</i> | 0,3 | 0,9 | 4,8 |
| | Yaponiya | 0,2 | 0,4 | 4,7 |
|  | <i>Eksport</i> | 0,1 | 0,0 | 0,0 |
| | <i>Import</i> | 0,1 | 0,4 | 4,7 |
| | BAA | 0,9 | 0,4 | 4,2 |
|  | <i>Eksport</i> | 0,9 | 0,3 | 0,2 |
| | <i>Import</i> | 0,0 | 0,1 | 4,0 |
| | Belgiya | 0,2 | 0,6 | 3,9 |
|  | <i>Eksport</i> | 0,0 | 0,2 | 0,0 |
| | <i>Import</i> | 0,2 | 0,4 | 3,9 |
| | Finlyandiya | 0,2 | 0,0 | 3,7 |
|  | <i>Eksport</i> | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| | <i>Import</i> | 0,2 | 0,0 | 3,7 |



XORAZM VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-avgust)*

| | Hajm mln. AQSH dollari | O'sish sur'ati, % da | Ulushi, % da |
|------------------------|---------------------------------|----------------------------|-----------------|
| Xorazm viloyati | 594,9 | 114,7 | 100,0 |
| Urganch sh. | 100,2 | 106,8 | 16,8 |
| Xiva sh. | 21,1 | 98,4 | 3,6 |
| Bog'ot | 22,9 | 86,1 | 3,9 |
| Gurlan | 23,3 | 2,2 m. | 3,9 |
| Qo'shko'pir | 23,0 | 173,2 | 3,9 |
| Urganch | 36,8 | 109,7 | 6,2 |
| Hazorasp | 39,6 | 166,0 | 6,7 |
| Tuproqqal'a | 156,5 | 111,8 | 26,3 |
| Xonqa | 42,6 | 134,5 | 7,2 |
| Xiva | 20,6 | 134,6 | 3,5 |
| Shovot | 44,2 | 105,0 | 7,4 |
| Yangiariq | 33,4 | 60,8 | 5,6 |
| Yangibozor | 30,1 | 2,6 m. | 5,1 |

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Tuproqqal'a 156,5

Urganch sh. 100,2

Shovot 44,2

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Xiva 20,6


Xiva sh. 21,1

Bog'ot 22,9

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqal'a tumani **26,3** % ulush bilan **156,5** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Xiva tumani **3,5** % ulush bilan **20,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **31,4** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning shu davriga nisbatan past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning yanvar-avgust oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **22,0** %ga oshdi va jami TSA'dagi ulushi **68,6** % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, **186,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **114,9** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **71,7** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



XORAZM VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)


| | |
|--|--|
| <p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 97,3 Eksport – 55,5 Import – 41,8</p>  | <p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 8,1 Eksport – 1,9 Import – 6,2</p>  |
| <p>Qirg'iz Respublikasi</p> <p>TSA – 26,5 Eksport – 26,3 Import – 0,2</p>  | <p>Ukraina</p> <p>TSA – 1,0 Eksport – 0,2 Import – 0,8</p>  |
| <p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 21,7 Eksport – 14,0 Import – 7,7</p>  | <p>Ozərbaycan</p> <p>TSA – 0,5 Eksport – 0,5 Import – 0,0</p>  |
| <p>Belarus</p> <p>TSA – 17,0 Eksport – 0,0 Import – 15,0</p>  | <p>Moldova Respublikasi</p> <p>TSA – 0,3 Eksport – 0,3 Import – 0,0</p>  |
| <p>Tojikiston</p> <p>TSA – 14,2 Eksport – 14,2 Import – 0,0</p>  | <p>Armaniston</p> <p>TSA – 0,05 Eksport – 0,05 Import – 0,0</p>  |




Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushlari Rossiya (**52,1** %), Qirg'iz Respublikasi (**14,2** %) hamda Qozog'iston (**11,6** %) davlatlari bilan qayd etildi.

XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Xorazm viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **162,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **97,8** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **64,7** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.


XORAZM VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **161** taga yetdi va ular tomonidan **209,2** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **23,6** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-avgust, yillar kesimida)

| XSST tarkibi | Mln. AQSH dollari | | O'zgarish sur'ati, % da | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | |
|---|-------------------|--------------|-------------------------|--------------|------------------------------|--------------|
| | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 |
| Jami eksport | 169,2 | 209,2 | 118,1 | 123,6 | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 52,1 | 92,6 | 125,6 | 177,7 | 30,8 | 44,3 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 1,3 | - | 539,4 m. | 0,0 | 0,6 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 3,3 | 3,2 | 63,9 | 97,6 | 1,9 | 1,5 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 2,9 | 2,1 | 14,9 m. | 73,6 | 1,7 | 1,0 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 1,3 | - | 19,1 m. | - | 0,8 | - |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 0,6 | 1,5 | 84,3 | 2,4 m. | 0,4 | 0,7 |
| Sanoat tovarlari | 77,9 | 75,0 | 106,7 | 96,3 | 46,0 | 35,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,2 | 0,4 | 67,0 | 2,4 m. | 0,1 | 0,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 22,5 | 25,9 | 193,5 | 115,3 | 13,3 | 12,4 |
| Xizmatlar | 8,5 | 7,1 | 78,3 | 83,7 | 5,0 | 3,4 |

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **96,3 %**ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**44,3%**), sanoat tovarlari (**35,9 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**12,4 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust)

| XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2022- yilga nisbatan, % da |
|---|-------------------|----------------------------|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 85111,6 | 167,4 |
| Don mahsulotlari | 7021,5 | 603,3 m. |
| Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari | 176,2 | 65,7 |
| Turli xil ovqatlar va preparatlar | 140,3 | 63,4 |
| Shakar, shakar mahsulotlari va asal | 115,8 | 17,9 |
| Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari) | 50,6 | 166,1 |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 6,7 | 7,1 |
| Ichimliklar va tamaki | | |
| Ichimliklar | 1296,3 | 539,5 m. |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | | |
| To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan) | 2316,0 | 88,3 |
| Hayvonot va o'simlik xom ashyosi | 581,2 | 8,7 m. |
| Yog'li urug'lar va yog'li mevalar | 181,6 | 33,6 |
| O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) | 109,8 | - |
| Po'kak va yog'och mahsulotlari | 1,9 | 4,7 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar | 2112,1 | 73,6 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | | |
| Noorganik kimyoviy moddalar | 508,2 | 116,4 m. |
| Bo'yoqlar va taninlar | 303,1 | 109,3 |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 221,0 | - |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 155,7 | 131,7 |
| Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 112,2 | 111,9 |
| Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari | 109,4 | 4,8 m. |
| Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar | 93,0 | 80,4 |
| Organik kimyoviy vositalar | 3,0 | - |


| XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2022- yilga nisbatan, % da |
|---|-------------------|----------------------------|
| Sanoat tovarlari | | |
| To'qimachilik iplari, matolar va shunga o'xshash mahsulotlar | 64876,3 | 96,6 |
| Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari | 9245,4 | 2,1 m. |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mahsulotlar | 636,0 | 28,1 |
| Boshqa metall buyumlar | 195,4 | 4,8 |
| Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari) | 24,2 | 72,2 |
| Teri, boshqa charm buyumlar, mo'ynalar | 6,8 | 41,3 |
| Rangli metallar | 4,7 | - |
| Rezina buyumlar | 2,6 | 2,9 m. |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari | | |
| Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar | 157,0 | 3,8 m. |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar | 145,4 | 4,5 m. |
| Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar | 63,9 | - |
| Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari | 35,9 | - |
| Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari | 25,7 | 24,4 |
| Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari | 6,2 | - |
| Boshqa transport vositalari | 2,5 | - |
| Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar | 1,3 | - |
| Metallni qayta ishlash uskunolari | 0,04 | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | | |
| Kiyim va kiyim aksessuarlari | 20793,1 | 101,9 |
| Oyoq kiyimlari | 3266,4 | 4,6 m. |
| Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar | 910,7 | 30,2 m. |
| Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar. | 475,5 | 70,2 |
| Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar | 407,5 | 61,8 |
| Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature | 27,5 | 42,3 m. |
| Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari. | 15,4 | - |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunolari va optik mahsulotlar | 9,3 | 37,6 m. |

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlari 114,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 54,9 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston, Qozog'iston, Turkiya va Xitoy kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 87,1 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-avgust, % da)





XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | Egallab turgan o'rni | |
|-----------------------|-------------------|------|-------------------------|---------|-------------------------|------|
| | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 |
| Rossiya Federatsiyasi | 59,9 | 55,5 | 149,3 | 92,6 | 1 | 1 |
| Pokiston | 5,8 | 54,6 | 139,4 | 9,5 m. | 6 | 2 |
| Qirg'iziston | 24,1 | 26,3 | 93,1 | 109,2 | 3 | 3 |
| Tojikiston | 2,1 | 14,2 | 70,3 | 6,8 m. | 8 | 4 |
| Qozog'iston | 31,2 | 14,0 | 2,3 m. | 44,7 | 2 | 5 |
| Turkiya | 21,4 | 10,4 | 127,3 | 48,7 | 4 | 6 |
| Xitoy | 7,7 | 7,2 | 46,5 | 93,5 | 5 | 7 |
| Eron | 1,8 | 5,9 | 52,5 | 3,3 m. | 9 | 8 |
| Polsha | 0,6 | 3,2 | 128,2 | 4,9 m. | 16 | 9 |
| Koreya Respublikasi | 0,2 | 2,8 | 38,1 | 14,4 m. | 24 | 10 |
| Belarus | 1,4 | 2,0 | 147,7 | 144,3 | 13 | 11 |
| Turkmaniston | 2,9 | 1,9 | 66,5 | 64,6 | 7 | 12 |
| Gruziya | 1,5 | 1,4 | 136,0 | 95,2 | 11 | 13 |
| Iroq | 0,4 | 1,4 | 93,8 | 3,2 m. | 18 | 14 |
| Chexiya | 0,0 | 1,3 | 12,7 m. | 35,8 m. | 29 | 15 |
| Hindiston | 0,2 | 1,0 | 94,6 | 6,0 m. | 26 | 16 |
| Litva | 0,2 | 1,0 | 792,0 m. | 4,8 m. | 23 | 17 |
| Germaniya | 1,4 | 0,7 | 5,1 m. | 50,8 | 12 | 18 |
| Vyetnam | 0,8 | 0,7 | 108,5 | 85,3 | 15 | 19 |
| AQSH | 0,1 | 0,7 | 5,9 | 6,0 m. | 28 | 20 |



XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-avgust)*

| | Hajm mln. AQSH dollari | O'sish sur'ati, % da | Ulushi, % da |
|------------------------|---------------------------------|----------------------------|-----------------|
| Xorazm viloyati | 209,2 | 123,6 | 100,0 |
| Urganch sh. | 20,1 | 104,2 | 9,6 |
| Xiva sh. | 9,5 | 104,6 | 4,5 |
| Bog'ot | 16,3 | 73,8 | 7,8 |
| Gurlan | 17,4 | 3,7 m. | 8,3 |
| Qo'shko'pir | 4,2 | 47,4 | 2,0 |
| Urganch | 18,9 | 131,2 | 9,1 |
| Hazorasp | 21,5 | 162,5 | 10,3 |
| Tuproqqal'a | 11,3 | 166,9 | 5,4 |
| Xonqa | 24,2 | 113,1 | 11,6 |
| Xiva | 9,9 | 76,9 | 4,7 |
| Shovot | 18,3 | 102,4 | 8,8 |
| Yangiariq | 16,9 | 166,0 | 8,1 |
| Yangibozor | 19,9 | 2,4 m. | 9,5 |

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Xonqa tumani **11,6** % bilan **24,2** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shko'pir tumani **2,0** % bilan **4,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-avgust oylarida **80,7** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **23,5** foizga yoki **24,8** ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**57,7** %), Rossiya (**30,8** %), Qozog'iston (**8,7** %) hamda Eron (**0,7** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **84,5 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **65,2** % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **40,4** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-avgust)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI

(2023- yil yanvar-avgust)

| Davlatlar | Tonna (birlikda) | Ming AQSH dollari | Ulushi, % da * |
|---|---------------------|----------------------|-------------------|
|  Pokiston | 8768,7 | 48798,4 | 57,7 |
|  Rossiya Federatsiyasi | 36690,5 | 26056,2 | 30,8 |
|  Qozog'iston | 32792,0 | 7362,6 | 8,7 |
|  Eron | 306,9 | 593,4 | 0,7 |
|  Polsha | 620,6 | 566,9 | 0,7 |
|  Afg'oniston | 339,2 | 241,9 | 0,3 |
|  Turkiya | 84,5 | 215,0 | 0,3 |
|  BAA | 74,6 | 176,0 | 0,2 |
|  Turkmaniston | 393,9 | 144,0 | 0,2 |
|  Ukraina | 210,1 | 117,0 | 0,1 |
|  Boshqa davlatlar | 419,3 | 239,4 | 0,3 |

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-avgust oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **57,7** %i), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan **87,3** foizga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.









Xususan, 2023- yil yanvar-avgust oylari yakuni bo‘yicha **50,4 mln.** AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **24,1 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **42,8 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**50,7 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **198** turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning **26** ta davlatiga eksport qilindi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



| | 2022- yil | 2023- yil |
|--|-------------|-------------|
| Jami: | 88,2 | 50,4 |
|  Paxtadan yigirilgan ip | 50,7 | - |
|  Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari | 20,0 | 20,5 |
|  Naqshli mato | 0,8 | 1,0 |
|  Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari | 2,9 | 3,6 |
|  Paxtadan gazlamalar | 9,6 | 13,4 |
|  Ipak va ipak mahsulotlari | 2,8 | 6,2 |
|  Paxta mahsulotlari | 1,0 | 2,7 |
|  Gilamlar | 0,5 | 3,0 |



DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



| | 2022- yil | 2023- yil | O‘shish sur‘ati, % da |
|---|-----------|-----------|-----------------------|
|  Qirg‘iz Respublikasi | 16,6 | 15,6 | 93,9 |
|  Rossiya Federatsiyasi | 29,1 | 11,3 | 38,7 |
|  Tojikiston | 0,6 | 11,2 | 18,7 m. |
|  Qozog‘iston | 5,7 | 3,7 | 64,7 |
|  Koreya Respublikasi | - | 2,7 | - |
|  Chexiya | - | 1,3 | - |
|  Belarus | 1,2 | 1,1 | 90,2 |
|  XXR | 7,5 | 0,9 | 11,9 |
|  Vyetnam | 0,8 | 0,7 | 85,3 |
|  Germaniya | 1,3 | 0,6 | 45,5 |
|  Boshqa davlatlar | 25,4 | 1,3 | 5,3 |




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg‘iz Respublikasi (**30,9 % – 15,6 mln. AQSH dollari**) va Rossiya Federatsiyasi (**22,3 % – 11,3 mln. AQSH dollari**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **7,1** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **3,4** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **16,3** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**44,8** %), moliyaviy xizmatlar (**24,4** %), transport (**18,3** %) telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**12,4** %) hissasiga to'g'ri kelgan.




XORAZM VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi **385,8** mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **10,4 %** ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**41,7 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**36,8 %**) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (**7,6 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **36,4** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **385,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

| XSST tarkibi | Mln. AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | Umumiy hajmga nis- batan. % da | |
|--|-------------------|--------------|-------------------------|--------------|--------------------------------------|--------------|
| | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 |
| Jami import | 349,3 | 385,8 | 124,6 | 110,4 | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 132,3 | 141,8 | 118,5 | 107,2 | 37,9 | 36,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,1 | 0,2 | 283,8 | 165,2 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 24,2 | 29,3 | 131,5 | 121,1 | 6,9 | 7,6 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 4,1 | 7,9 | 206,3 | 193,2 | 1,2 | 2,0 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 1,3 | 2,3 | 75,5 | 180,8 | 0,4 | 0,6 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 17,0 | 15,3 | 141,5 | 90,3 | 4,9 | 4,0 |
| Sanoat tovarlari | 25,1 | 18,7 | 218,9 | 74,4 | 7,2 | 4,8 |
| Mashinalar va transport asbob- uskunalari | 131,7 | 160,8 | 191,0 | 122,1 | 37,7 | 41,7 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 13,7 | 9,6 | 25,2 | 70,3 | 3,9 | 2,5 |



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-avgust)


| XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2022- yilga nisbatan, % da |
|--|-------------------------|----------------------------------|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | | |
| Shakar, shakar mahsulotlari va asal | 128939,6 | 104,2 |
| Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari) | 6260,5 | 2,3 m. |
| Don va ularning mahsulotlari | 3250,2 | 3,2 m. |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 1961,8 | 83,1 |
| Sabzavotlar va mevalar | 452,6 | 180,9 |
| Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari | 373,8 | 96,8 |
| Har xil ovqatlar va preparatlar | 334,0 | 36,2 |
| Tirik hayvonlar | 228,5 | 33,1 |
| Ichimliklar va tamaki | | |
| Ichimliklar | 164,7 | 165,2 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | | |
| Yog'och mahsulotlari | 26569,0 | 125,2 |
| To'qimachilik tolalari | 2398,1 | 3,5 m. |
| Hayvonlar va o'simliklardan mahsulotlar | 132,1 | 7,2 |
| Tabiiy kauchuk | 91,2 | 56,6 |
| O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) | 47,9 | - |
| Yog'li urug'lar va yog'li mevalar | 15,6 | 6,2 |
| Qog'oz xamiri va makulatura | 5,7 | - |
| Metall rudalari va metall parchalari | 0,1 | 3,1 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | | |
| Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar | 7334,5 | 2,3 m. |
| Ko'mir, koks va briketlar | 517,3 | 55,5 |
| Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lari va mumlar | | |
| O'simlik moylari va yog'lari | 2307,5 | 180,8 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 6289,5 | 130,2 |
| O'g'itlar | 3077,3 | 42,2 |
| Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 1639,1 | 196,6 |
| Bo'yoqlar va taninlar | 1209,7 | 93,7 |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 904,3 | 94,3 |
| Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari | 840,1 | 2,8 m. |
| Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar | 740,1 | 183,1 |
| Noorganik kimyoviy moddalar | 373,4 | 43,2 |

| XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2022- yilga nisbatan, % da |
|--|-------------------|----------------------------|
| Sanoat tovarlari | | |
| Yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari) | 5138,4 | 2,0 m. |
| Metall buyumlar | 3100,0 | 32,2 |
| To'qimachilik iplari, matolar | 2950,4 | 101,7 |
| Quyma temir va po'lat | 2662,2 | 50,4 |
| Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari | 2304,8 | 88,6 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar | 1558,7 | 92,1 |
| Rezina buyumlar | 885,1 | 2,5 m. |
| Rangli metallar | 93,2 | 2,4 m. |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari | | |
| Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar | 99795,3 | 126,9 |
| Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari | 20571,9 | 182,2 |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar | 19768,6 | 2,2 m. |
| Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari | 14292,7 | 123,8 |
| Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar | 4824,5 | 24,9 |
| Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar | 910,9 | 151,8 |
| Metallni qayta ishlash mashinalari | 458,1 | 42,2 |
| Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari | 121,3 | 57,4 |
| Boshqa transport vositalari | 25,5 | 879,3 m. |
| Turli hil tayyor buyumlar | | |
| Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature | 4298,2 | 44,1 |
| Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari. | 2774,1 | 84,5 |
| Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar. | 1756,3 | 5,1 m. |
| Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matras tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar | 660,7 | 5,5 m. |
| Oyoq kiyimlari | 96,9 | 88,3 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunalar, sarf materiallari va optik mahsulotlar | 20,9 | 60,7 |
| Kiyim va kiyim aksessuarlari | 11,5 | 135,6 |
| Sayohat aksessuarlari va sumkalar | 2,6 | 10,6 |

2023- yil yanvar-avgust oylari natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan import ulushi **18,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **18,9 %** ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-avgust oylarida Xorazm viloyati **50** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, XXR, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Belarus va Eron) jami importning **84,0** foizini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-avgust, % da)





XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | Umumiy hajmdagi o'rni | |
|--------------------------|-------------------|-------|-------------------------|---------|--------------------------|------|
| | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 |
| Braziliya | 123,8 | 125,0 | 126,9 | 101,0 | 1 | 1 |
| XXR | 70,2 | 70,1 | 102,5 | 99,9 | 2 | 2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 39,7 | 41,8 | 145,7 | 105,2 | 4 | 3 |
| Turkiya | 64,4 | 37,0 | 185,5 | 57,4 | 3 | 4 |
| Germaniya | 5,4 | 27,1 | 137,7 | 5,0 m. | 7 | 5 |
| Belarus | 3,3 | 15,0 | 2,8 m. | 4,5 m. | 11 | 6 |
| Eron | 3,7 | 8,0 | 104,1 | 2,2 m. | 10 | 7 |
| Qozog'iston | 9,8 | 7,7 | 178,5 | 79,3 | 5 | 8 |
| Turkmaniston | 4,6 | 6,2 | 157,9 | 133,6 | 8 | 9 |
| Polsha | 4,5 | 5,1 | 2,7 m. | 113,5 | 9 | 10 |
| Shveysariya | 0,8 | 4,8 | 3,3 m. | 5,6 m. | 17 | 11 |
| Yaponiya | 0,4 | 4,7 | 5,8 m. | 10,8 m. | 21 | 12 |
| Litva | 2,2 | 4,4 | 141,1 | 2,0 m. | 13 | 13 |
| BAA | 0,1 | 4,0 | - | 43,6 m. | 33 | 14 |
| Belgiya | 0,4 | 3,9 | 199,5 | 9,4 m. | 22 | 15 |
| Finlyandiya | - | 3,7 | - | - | - | 16 |
| Koreya Respublikasi | 2,2 | 2,7 | 14,1 | 123,6 | 12 | 17 |
| Italiya | 0,5 | 2,2 | 123,6 | 4,4 m. | 28 | 18 |
| Gongkong | 0,2 | 2,0 | 42,7 | 9,1 m. | 19 | 19 |
| Bangladesh | 1,6 | 1,4 | 142,4 | 91,1 | 14 | 20 |



XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-avgust)

| | Hajm mln. AQSH dollari | O'sish sur'ati, % da | Ulushi, % da |
|------------------------|---------------------------------|----------------------------|-----------------|
| Xorazm viloyati | 385,8 | 110,4 | 100,0 |
| Urganch sh. | 80,1 | 107,5 | 20,8 |
| Xiva sh. | 11,7 | 93,9 | 3,0 |
| Bog'ot | 6,6 | 146,2 | 1,7 |
| Gurlan | 5,9 | 101,1 | 1,5 |
| Qo'shko'pir | 18,8 | 4,2 m. | 4,9 |
| Urganch | 17,9 | 93,5 | 4,6 |
| Hazorasp | 18,1 | 170,4 | 4,7 |
| Tuproqqal'a | 145,2 | 109,0 | 37,6 |
| Xonqa | 18,3 | 179,4 | 4,7 |
| Xiva | 10,7 | 4,3 m. | 2,8 |
| Shovot | 25,9 | 107,0 | 6,7 |
| Yangiariq | 16,4 | 36,7 | 4,3 |
| Yangibozor | 10,2 | 3,2 m. | 2,6 |

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Tuproqqal'a 145,2

Urganch sh. 80,1

Shovot 25,9

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Gurlan 5,9

Bog'ot 6,6

Yangibozor 10,2

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumani hissasiga to'g'ri kelib, **37,6 %** bilan **145,2** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulush esa Gurlan tumani hissasiga **1,5 %** bilan **5,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **160,8** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **22,5** %ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **41,7** %ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-avgust)




2023- yil yanvar-avgust oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **29,9** mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Xorazm viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **63,6** mln. AQSH dollari (**39,6** %), Turkiya — **27,2** mln. AQSH dollari (**16,7** %) va Germaniya - **23,3** mln. AQSH dollari (**14,3** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **18,7** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,6** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **4,8** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR


(2023- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)

4,2 mln. AQSH doll,
ulushi – 22,5 %



**Rossiya
Federatsiyasi**

2,4 mln. AQSH doll,
ulushi – 12,9 %



**Xitoy Xalq
Respublikasi**

2,3 mln. AQSH doll,
ulushi – 12,5 %



Turkiya

2,0 mln. AQSH doll,
ulushi – 10,8



Belarus

1,6 mln. AQSH doll,
ulushi – 8,7



Germaniya



Sanoat mahsulotlari importi asosan yog'och va yog'ochdan bo'lgan buyumlar (**5,1** mln. AQSH dollari), metall buyumlar (**3,1** mln. AQSH dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**2,9** mln. AQSH dollari), quyma temir va po'lat (**2,7** mln. AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri (**2,3** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.